

## MINTAQAVIY EKOLOGIK-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH - HUDUDIY RIVOJLANISHNING USTUVOR YO‘NALISHI SIFATIDA

**D. Sh. Yavmutov**

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, i.f.n., O‘zbekiston.

### ARTICLE INFO.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, mintaqaviy rivojlanish, barqaror rivojlanish, mintaqa, iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, konsepsiya, iqtisodiy-ekologik, strategiya.

### Annotasiya

Maqolada hududiy iqtisodiy barqaror rivojlanishga erishishda mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishga konsepsiyasini ishlab chiqish orqali erishish imkonligi ochib berilgan. Mintaqani iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlantirish konsepsiyasi hududlarda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni samarali yechish, aholining turmush sharoitlarini farovonlashtirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va oqilona muhofaza qilishga yo‘naltirilgan. O‘zbekistonda mintaqalarni barqaror rivojlantirishning SWOT tahlili amalga oshirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

**Kirish.** Jahonning globallashuvi ham so‘nggi yillarda yuz berayotgan tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, savdo, siyosiy noaniqliklar, turli xavf va tahdidlarning o‘ziga borayotganligi sharoitida, Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ni to‘liq amalga oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotini, uning mintaqalarini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan turli strategiyalar, konsepsiyalar, maqsadli dasturlar va yo‘l xaritalarini BRMlarga moslashtirish, erishilgan natijalarni chuqur tizimli tahlil qilgan holda, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va barqaror rivojlanishning milliy maqsad va vazifalariga erishishdagi keyingi qadamlarni belgilash uchun ehtiyojni yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekistonda mintaqalarning ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati hududlarda ishlab chiqarishning, butun iqtisodiyot tarmoqlarining ekologiyalashuvini, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishini talab qiladi. Muallif yuqoridagilarni inobatga olib O‘zbekiston mintaqalarining ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini taklif qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Iqtisodiy adabiyatlarda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish masalalarining tadqiqoti uncha uzoq bo‘lmagan davrni o‘z ichiga oladi. Uzoq xorijiy olimlar tomonidan ushbu masalalar tadqiqi nibatan oldinroq boshlangan bo‘lsada, yaqin xorij hamda mahalliy olimlar tomonidan ushbu masalalar tadqiqi yaqin o‘tmishdan boshlanganini ko‘ramiz.

“O‘zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari” maqolasida **M.T. Adilova** “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasining mazmun-mohiyati, mintaqalarni barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, mintaqalar ekologik holatiga atmosfera havosi ifloslanishi ta’siri va ularni ekologik holati bo‘yicha zonalarga ajratish, ekologik jihatlarni hisobga olgan holda

*mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish va "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish masalalari yoritilgan. Ekologik jihatlarni hisobga olgan holda mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish bo'yicha fikrlarni keltirgan<sup>1</sup>.*

Karimov Dilshadbekning "Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari" maqolasida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va uning raqobatbardoshligini ta'minlashda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlarini shakllantirishda reyting baholash tizimining ahamiyati va afzalliklari, mamlakatimizda hududlar rivojlanish darajalarini qiyosiy va kompleks tahlil qilish asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, hududlarni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy mulohazalar bayon etilgan<sup>2</sup>

A. Nigmatov, R. Kulmatov, A. Rasulov, Sh. Muxamedovlarning "Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari" nomli monografiyasida<sup>3</sup> barqaror rivojlanish tushunchasining mazmuni va mohiyati, barqaror rivojlanish konsepsiyasining paydo bo'lishi va uning globallashuvi, barqaror rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish indikatorlari tushunchasi, turlari va ularni amalda qo'llash muammolari, barqaror rivojlanish indikatorlariga tizimli yondashuv, global barqaror rivojlanish indikatorlari, regional barqaror rivojlanish indikatorlari, Quyi Zarafshon okrugining barqaror rivojlanish indikatorlari tadqiq qilingan.

V.A. Vasilenkoning "Mintaqalarning barqaror rivojlanishi: yondoshuvlar va tamoyillar" nomli monografiyasida<sup>4</sup> barqaror rivojlanishning kontseptual asoslarini shakllantirish jarayoni va bu boradagi ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Ekologik barqaror rivojlanish yo'lga o'tishning asosiy tamoyillari ko'rib chiqilgan. Integral ilmiy yo'nalish hisoblanmish - atrof-muhitga ta'sirni baholash (strategik ekologik baholash) ning shakllanishi va shakllanish tendensiyalari ko'rsatilgan. Ekologik barqaror rivojlanish muammolari va ularni hal qilish amaliyoti ko'rib chiqilgan. Suv xo'jaligi muammolariga, jumladan, Sibir daryolari oqimining bir qismini janubga o'tkazishga alohida e'tibor qaratilgan.

D.S.Xayrulovning "Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorlik muammolari" nomli tadqiqot ishida mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishining ilmiy yondoshuvlari va qarashlar tahlil qilingan. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida muhim omil sifatida mintaqaviy rivojlanish omili asoslangan<sup>5</sup>.

M.A.Antonovanning "Mintaqalar barqaror rivojlanishini tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari" nomli tadqiqot ishida mintaq va barqaror rivojlanish kategoriyalarining nazariy asoslari tadqiq qilingan. Majud yondoshuvlar tahlil qilinib, guruhlashtirilgan, tasniflangan<sup>6</sup>.

I.Buzko, Ye.Varatanova, I.Trunina, I.Xovrakning "Yevropa Ittifoqida mintaqaviy barqaror rivojlanishning nazariy jihatlari" nomli maqolasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida hududiy barqaror

<sup>1</sup> Adilova M.T. O'zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/06/06/ozbekiston-mintaqalarini-barqaror-rivojlantirishning-iqtisodiy-ekologik-jihatlari>.

<sup>2</sup> Karimov D.M. Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23\\_Karimov\\_D.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_Karimov_D.pdf).

<sup>3</sup> [https://www.researchgate.net/publication/360081862\\_BARKAROR\\_RIVOZLANIS\\_VA\\_UNING\\_TIZIMLI\\_INDİKATOR\\_LARI](https://www.researchgate.net/publication/360081862_BARKAROR_RIVOZLANIS_VA_UNING_TIZIMLI_INDİKATOR_LARI).

<sup>4</sup> Василенко В.А. Устойчивое развитие регионов: подходы и принципы. [http://lib.ieie.nsc.ru/docs/2008/-Vasilenko\\_2008Ustojchivoie\\_Razvitie\\_Regionov.pdf](http://lib.ieie.nsc.ru/docs/2008/-Vasilenko_2008Ustojchivoie_Razvitie_Regionov.pdf).

<sup>5</sup> Хайруллоев Д.С., Еремеев Л.М. Проблемы устойчивости социально-экономического развития региона // Вестник Казанского государственного аграрного университета. – Казань. – 2012. – №1. – С.73-76. [https://kpfu.ru/docs/F1374583682/6\\_prob\\_st.pdf](https://kpfu.ru/docs/F1374583682/6_prob_st.pdf).

<sup>6</sup> Антонова М.А.. Теоретико-методологические основы изучения устойчивого развития регионов. <https://eee-region.ru/article/3604>.

rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilingan<sup>7</sup>.

K.Klement, M.Xansen, K.Bredlining “Mintaqaviy barqaror rivojlanish: Shimoliy mamlakatlar tajribasini o‘rganish” nomli tadqiqotida Yevropa Ittifoqining shimoliy mamlakatlari – Daniya, Shvesiya va Norvegiya misolida mintaqaviy barqaror rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan<sup>8</sup>.

Yeva-Luz Texada-Guterres, Zofiya Koloshko-Xomentovska, Mariantonietta Fiore va Alessiya Spadalar o‘zlarining “Mintaqaviy jihatdan ekologik barqaror rivojlanish: Polsha misolida qiziqarli tajriba” nomli tadqiqot ishida Polshada hududiy jihatdan ekologik rivojlanishda barqarorlikka erishish tajribasi bayon qilingan<sup>9</sup>.

Yunchji Lyu, Junszin Yan, Meyin Sun, Le Chjan, Syuxun Li, Lin’yuy Men, Ichjuo Van, syan Lyu muallifligida tayyorlangan “Ekologiya va iqtisodiyot kordinatsiyasiga asoslangan holda barqaror rivojlanishning mintaqaviy strategiyasi” nomli tadqiqot ishida Xitoy Respublikasining Sichuan provinsiyasi misolida ma’muriy birliklarda ekologik sifat va iqtisodiy indeksarga erishida barqaror rivojlanish tajribasi tahlil qilingan<sup>10</sup>.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida iqtisodiy voqealik jarayonlarini o‘rganishning ilmiy usullari – tizimli tahlil, umumlash-tirish, guruhlash, kuzatish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, SWOT tahlil kabi usullardan foydalanildi.


**Tahlil va natijalar.** Mintaqani iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlantirish konsepsiyasi hududlarda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni samarali yechish, aholining turmush sharoitlarini farovonlashtirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va oqilona muhofaza qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu konsepsiya maqsad, asosiy tamoyillar, elementlar, yo‘nalishlar, natijalardan iborat tarkibiy qismlardan tashkil topgan (1- rasm). Ushbu konsepsiyaga barqaror rivojlanish konsepsiyasining bir qismi sifatida qarash mumkin.

<sup>7</sup> Бузко И., Варганова Е., Трунина И., Ховрак И. Теоретические аспекты региональной устойчивости развитие в ЕС и Украине. [https://www.shsconferences.org/articles/shsconf/pdf/2019/02/shsconf\\_ies2018\\_01001.pdf](https://www.shsconferences.org/articles/shsconf/pdf/2019/02/shsconf_ies2018_01001.pdf).

<sup>8</sup> Клемент К., Хансен М., Бредли К. Устойчивое региональное развитие: Изучение опыта Северных стран. <https://www.diva-portal.org/smash/get/diva2:700461/FULLTEXT01.pdf>.

<sup>9</sup> Техада-Гутьеррес Е., Колошко-Хоментовска З., Фиоре М., Спада А.. Устойчивое экологическое развитие с региональной точки зрения –интересный пример Польши. <https://www.mdpi.com/2071-1050/15/5/4368>.

<sup>10</sup> Юньчжи Лю, Жунцзин Ян, Мэйин Сунь, Ле Чжан, Сюхун Ли, Линъюй Мэн, Ичжуо Ван, Цян Лю. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1470160X21011109>.



### 1-rasm. Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasi<sup>11</sup>.

Ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishga erishish uchun avvalo mintaqada ekologik rivojlanishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni shakllantirish talab etiladi. Bunda asosan tabiiy boyliklarning sifati va miqdorini kamaytirmasdan turib, ishlab chiqarish jarayonlarida iqtisodiy o'sishga erishi bo'yicha mexanizmlarni yaratish talab etiladi. Bunda mintaqalarning tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik-ekologik xususiyatlarining hududiy jihatlaridan, shuningdek, rivojlangan xorijiy davlatlarning mintaqalarga mos keluvchi mazkur yo'nalishdagi samarali tajribalaridan foydalanish muallif tomonidan tavsiya etiladi.

"Yashil iqtisodiyot" innovatsion va resurstejamkor iqtisodiy rivojlanishga, shu bilanbirga aholining turmush tarzini yaxshilashga, adolatli ijtimoiy taqsimotga, atrof-muhitning samarali muhofazasiga asoslanganligi bois, unga o'tish o'z navbatida hududning barqaror ekologik-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish orqali mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hududiy rivojlanishning uzoq muddatli strategiyalari, hududiy rivojlantirish dasturlaridagi ustuvor maqsadlar va ularning ko'rsatkichlarini moslashtirish zarur.

Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasi quyidagi tarkibiy tuzilmalarga ega: maqsad, vazifalar, tamoyillar, dastaklar, natija va uni baholash.

Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishda maqsad aniq bo'lsada, uning vazifalarini belgilashda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda potensial imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi.

Konsepsiyani amal qilish tamoyillari ilmiylik, majmualilik, natijadorlik, adolatlik, axborotlik, shaffoflik, qat'iylik, "ifloslantiruvchi-to'laydi". Har bir ishlab chiqilgan va rejalashtirilayotgan choratadbirlar sanab o'tilgan tamoyillarga amal qilishi lozim. Konsepsiya joriy etilishida har bir ko'zda tutilgan tadbirlar albatta ilmiy asoslangan, majmuaviy yondoshuvga asoslangan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan adolatli, axborot manbalari bilan yetarli ta'minlangan va ma'lumotlari shaffof bo'lishi lozim. Tadbirlarni amalga oshirishda albatta qat'iylik bilan amalga oshirish talab etiladi hamda atrof muhitni ifloslantirishga yo'l qo'yayotgan har bir sub'ektning o'zi tabiatga yetkazgan zarariga proporsional miqdordagi to'lovlarni, jarimalarni to'lab borishi lozim.

Konsepsiyani amalga oshirishda quyidagi yondashuvlardan foydalaniladi:

iqtisodiyotni ekologiyalashtirish – tabiiy resurslardan ularning buzilishini istisno etadigan hamda qayta tiklanish imkoniyatlarini inobatga olgan holda oqilona foydalanish, barcha bosqichlarda majburiy ekologik ekspertiza o'tkazish, ekotizimlarning o'z potensial sig'imini qayta tiklash imkoniyatlarini baholash, hududiy iqtisodiy tizimlarni joylashtirish va rivojlantirishda mintaqalar tabiiy-ekologik xususiyatlarini inobatga olish;

normativ-huqukiy bazani tizimlashtirish va takomillashtirish – milliy qonunchilikni xalqaro normalarga implementatsiya qilish, ekologik qonunchilikni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan takomillashtirish, ekologik siyosatni hududiy jihatdan tabaqalashtirish, hududiy va strategik ekologik baholash tizimini joriy etish, atrof muhit ifloslanishini hisoblab chiqishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish – chiqindilarni (suyuq, qattiq, gazsimon) tashlanmalarni tashlash uchun to'lov miqdorlarini ularning hajmiga hamda atrof muhit va aholi sog'ligi uchun xavfliligiga bog'liq holda belgilash, atrof muhitni muhofaza qilishni byudjetdan moliyalashtirishning maqbul darajasini joriy qilish, chiqindilarni hosil bo'lishi va utilizatsiyasi bo'yicha hududiy tabaqalashgan to'lovlarni joriy qilish;

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida nazoratni kuchaytirish – atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlarining huquq hamda vakolatlarini aniq chegaralash, ekologik yo'nalishdagi barcha organlarni yagona davlat organi doirasida optimal darajada markazlashtirish va qarorlar qabul qilish uchun unga zarur, asoslantirilgan vakolatlar berish, nazorat organlarini moddiy-texnik jihozlashning maqbul darajasini joriy qilish;

kompleks ekologik monitoringni olib borish – atrof tabiiy muhitning yagona davlat ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish, axborot resurslari fondini shakllantirish;

axborot bilan ta'minlanganlikni va shaffoflikni oshirish – ekologik siyosat, atrof muhitning muhofazasi, atrof muhitga munosabatlar tizimi bilan bog'liq jarayonlar, tabiatga yetkazilayotgan zarar va uning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadyuirlar to'g'risida yetarli va zarur axborotlar bilan ta'minlash, ma'lumot olish tizimini soddalashtirish, ma'lumotlarning ochiqligini oshirish va shaffoflikni ta'minlash;

innovatsion texnologik jarayonlar va metodikalarni ishlab chiqish – ekologik toza texnologiyalar, ishlab chiqarishlar, xom ashyo, materiallarning turlari, mahsulotlar va uskunalarning ilmiy ishlanmalariga, ekotizimlarning zaifligini va tabiiy muhit ifloslanish darajasining aholi salomatligiga va atrof muhit ob'ektlariga ta'sirini tadqiq etishga investitsiyalar kiritish;

ekologik madaniyat va ta'limni shakllantirish – fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etgan holda, aholining uzluksiz ekologik ta'limi kompleks tizimini tashkil etish, atrof muhit masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda aholining ishtirok etishi;

xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – atrof muhitning xavfsiz darajasini saqlab qolish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish ishida xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarida ishtirok etish, atrof muhitni muhofaza qilishga va tabiatdan oqilona foydalanishga qo'shimcha tashqi investitsiyalarni jalb



etish<sup>12</sup>.

O'zbekistonda mintaqalarni ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish hududlar iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni talab qiladi. Bunga sabab hududlarda iqtisodiyot tarmoqlari hozirda asosan resurсталab va energiya talab ishlab chiqarishga asoslangan. Tog'-kon, energetika, rangli metallurgiya, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlar shular jumlasidandir. Bu tarmoqlarda resurstejovchi, yuqori texnologik, energiyatejamkor ishlab chiqarishni joriy qilish bu muammolar yechimining eng maq'bul yo'lidir. Yuqori texnologik ishlab chiqarishni joriy qilish mintaqalar iqtisodiyotida shakllangan an'anaviy ishlab chiqarishni qisatirishga, pirovardida, atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni kamaytirishga, iqtisodiyotning ekologiyalashuviga erishiladi.

Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasi hududlarda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan xizmatlar bozorining shakllanishiga sharoit yaratadi. Bular oqibatida atrof-muhitga yetkazilayotgan zararlar kamayadi, mintaqada iqtisodiyot barqaror rivojlanish bosqichiga o'tadi, turli davrlarda tez-tez sodir bo'layotgan jahon va mintaqaviy darajadagi iqtisodiy va ekologik inqirozlarning salbiy oqibatlari ta'siri kamayadi.

Ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini mintaqaviy darajada joriy qilinishi ma'muriy birlikdagi iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik-iqtisodiy talablarga amal qilish doirasidagi rag'batlantiruvchi tadbirlarni shakllantirish hisobidan amalga oshiriladi<sup>13</sup>.

O'zbekistonda atrof muhitni muhofaza qilishning institutsional muammolari chuqur tahlili qilinmagan, bu o'z navbatida mintaqalarda ekologik-iqtisodiy barqarorlikka erishishda qator masalalarni yuzaga keltirmoqda. Iqtisodiyotni ekologiyalashirish masalalari yetarli darajada amalga oshirilmayapti. Respublikada barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat siyosatini shakllantirish, shuningdek, iqtisodiyot sektorlarini rivojlantirish konsepsiyalarini ishlab chiqishda ekologiyaga oid holatlar yetarli darajada inobatga olinmayapti. Ekologik standartlarning yo'qligi yoki eskirgan standartlardan foydalanish dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda mavjud ekologik muammolarni ob'ektiv baholash imkonini bermaydi<sup>14</sup>.

Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini shakllantirish va joriy qilishda tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlarda atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni iqtisodiy tartibga solish mamlakatda samarali ekologiya siyosatini olib borishning muhim sharti sanaladi.

Ayni vaqtda atrof muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar respublikada qo'llanilayotgan asosiy iqtisodiy vosita hisoblanadi. Biroq, atrof muhitni ifloslantirganlik uchun amaldagi kompensatsiya to'lovlari tizimi rag'batlantiruvchi funksiyaga ega emas, chunki ularning miqdori xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ifloslantiruvchi moddalarni oqizib yuborish/chiqarib tashlash hajmlarini pasaytirishga va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga rag'batlantirmaydi<sup>15</sup>.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasida markaziy o'rinni hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan iqtisodiy qarorlarning uzoq muddatli ekologik-iqtisodiy oqibatlarini hisobga olish muammosi egallaydi. Zararli ekologik-iqtisodiy oqibatlarni minimallashtirish, hozirgi va istiqboldagi iste'mol o'rtasida optimal

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4574008>.

<sup>13</sup> Яшалова Н.Н. Стимулирование устойчивого эколого-экономического развития региона. Диссертация на соискание учёной степени доктора экономических наук. [https://rusneb.ru/catalog/000199\\_000009\\_008475415/](https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_008475415/).

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4574008>.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4574008>.

murosaga erishish mamlakat mintaqalarining uzoq muddatdagi istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi asosini tashkil etishi kerak. Bunda barqaror rivojlanishning quyidagi asosiy mezonlariga amal qilish lozim:

- tiklanadigan tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish rejimini saqlab qolish;
- tiklanmaydigan tabiiy resurslar zahiralari kamayishini maksimal darajada sekinlashtirish va ularni muqobil variantlardagi resurslar bilan almashtirish;
- kam chiqindili va chiqindisiz (yopiq siklli), resurslarni tejoychi texnologiyalarni qo'llash asosida chiqindilarni mumkin qadar kamaytirish;
- Atrof-muhit afloslanishini kamaytirish.

Ularni hisobga olish atrof-muhitni kelajak avlodlar uchun saqlashga va yashashning ekologik sharoitini yomonlashtirmaslikka imkon beradi.

Yuqorida bayon qilinganlarga muvofiq barqaror rivojlanish konsepsiyasi texnogen rivojlanishni barqaror rivojlanishga almashtirishni, iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhit muhofazasini hisobga olib amalga oshirishni taqozo etadi.

Hozirgi global va milliy darajadagi ekologik vaziyat xo'jalik muammolarini atrof tabiiy muhitning talablari nuqtai nazaridan, shu bilan birga, ayni bir vaqtda tabiiy muhitni jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi talablari nuqtai nazaridan kompleks ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqalarning iqtisodiyotini barqaror rivojdantirishning muhim jihatlaridan biri bu mintaqalarni ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali boshqarish – ekologik menejmentdir. Biroq hozirgi holatda respublika darajasida ham mamlakat ichida – hududlar darajasida ham ekologik-iqtisodiy jihatdan yagona boshqaruv strukturasi, organi mavjud emas. Hozirda tarmoq yo'nalishida boshqaruv mavjud, biroq, tarmoqlararo shakllantirilgan, majmuali ravishda muammolarni o'rganib, ularga yechim taklif qiluvchi, umumiy ravishda hududlarning ekologik-iqtisodiy rivojlanishining muammolarini majmuali tarzda yechishga mas'ul struktura mavjud emas. Shu sababdan, muallif mintaqalarda ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishga, iqtisodiyotning ekologiyalashuviga, tabiatning iqtisodiyot rivojlanishi oqibatida ko'rayotgan zararini monitoring qilib, unga maqbul yechimlar taklif qilishga mas'ul bo'lgan hududiy ishchi guruh – "Hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash"ni tashkil etishni taklif qiladi.

Ushbu Kengashning asosiy maqsadi – hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishni ta'minlanishini muvofiqlashtirib borish. Asosiy vazifasi - hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha monitoring yuritish, holat bilan bog'liq muammolarni aniqlash, ularni o'z vaqtida bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan va kollegial qabul qilingan yechimlarini tavsiya qilish, hududning samarali ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish chora-tadbirlarining samaradorligini va natijadorligini muvofiqlashtirib borishdir. Eng asosiysi hududiy barqaror rivojlanish bo'yicha milliy va global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni milliy va hududlar darajasida muvofiqlashtirib borish sanaladi.

Viloyatlar darajasida "Hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishni muvofiqlashtirish bo'yicha Kengash" iqtisodiyotning turli tarmoqlarining yetakchi mutaxassislari, iqtisodchi va ekolog olimlardan tarkib topadi (2-rasm). Mamlakat miqyosida vazirliklar, qo'mitalar rahbarlari hamda respublikada yetakchi iqtisodchi va ekolog olimlardan tashkil topishi tavsiya qilinadi.



**2-rasm. Hududiy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishni muvofiqlashtiruvchi kengash**

Ekologik menejmentning umumiy qonuniyati quyidagi uchta asosiy umumiy ekologik boshqaruv tamoyilini belgilaydi: ekologik boshqaruvda tabiatning ustunligini hisobga olish tamoyili, ekologik boshqaruvda tabiatni ijtimoiylashtirishni hisobga olish tamoyili, ekologik boshqaruvda ishlab chiqarishni ekologiyalashuvini hisobga olish tamoyili.

Mintaqlarni barqaror rivojlantirish metodologiyasida hududiy rivojlanishni turli usullarda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullarga SWOT tahlil, PEST tahlil misol bo'lad. O'zbekistonda mintaqani yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror rivojlanishining SWOT tahlilini muallif amalga oshirdi (1-jadval).

**1-jadval O'zbekiston mintaqalarida barqaror rivojlanishni ta'minlashning SWOT tahlili**

KUCHLI TOMONLARI (S)	KUCHSIZ TOMONLARI (W)
<ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqalarning tabiiy resurslarga boyligi;</li> <li>- qulay tabiiy-iqlimiy sharoitlarning mavjudligi;</li> <li>- qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha jamlangan boy tajriba;</li> <li>- arzon va malakali ishchi kuchi mavjudligi;</li> <li>- ishlab chiqarish resurslari</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda barcha mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini qamrab olgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmaganligi;</li> <li>- yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi;</li> <li>- aholining ekologik sovodxonligi va ekologik madaniyati pastligi;</li> <li>- ishlab chiqarishda resurslar iste'molining kattaligi;</li> <li>- O'zbekiston o'z hududida suv resurslari shakllanishining kamligi;</li> </ul>



<p>mavjudligi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- hududlar barqaror rivojlanishi uchun davlatning moliyaviy va institusional qo'llab-quvvatlash tizimi mavjudligi;</li> <li>- barqaror rivojlanish milliy va global maqsadlari ta'minlanishning davlat tomonidan kafolatlanganligi;</li> <li>- yetarli huquqiy-me'yoriy asoslarning yaratilganligi;</li> <li>- muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun katta miqdordagi tabiiy resurslar mavjudligi va h.k.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- suv resurslari iste'molida mintaqaning boshqa mamlakatlariga bog'liqlik yuqoriligi;</li> <li>- suv iste'molida isrofgarchilik va yo'qotishlarning kattaligi;</li> <li>- sug'orishning ko'p hollarda to'la mashinalashgan usulga asoslanganligi;</li> <li>- yerlarning sho'rlanishi bilan bog'liq muammolar, ularni bartaraf etish uchun katta xarajatlarning mavjudligi;</li> <li>- yerdan foydalanuvchi xo'jaliklarning xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar bilan yaxshi ta'minlanmaganligi, ular xizmatlarining qoniqarsizligi;</li> <li>- asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlariga davlat tomonidan narx belgilanishi va ularni sotib olish bo'yicha davlat monopoliyasi o'rnatilganligi va h.k.</li> </ul>
<b>IMKONIYATLAR (O)</b>	<b>XAVF – XATARLAR (T)</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- yashil iqtisodiyotni rivojlantirish;</li> <li>- ekologik xavfni pasaytirish;</li> <li>- aholining ekologik sovodxonligini va ekologik madaniyatini oshirish;</li> <li>- barqaror rivojlanishning global va milliy maqsadlariga to'liq erishish;</li> <li>- sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida ishlab chiqarish hajmini va maydonlarini kengaytirish;</li> <li>- qishloq xo'jaligida yer maydonlarining umudorligini oshirish;</li> <li>- barqaror rivojlanishga aholi va ishlab chiqarish tomonidan talabning ortishi;</li> <li>- ekologik sof mahsulotlarga talabning ortishi;</li> <li>- tadbirkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;</li> <li>- korxonalar uchun kredit – moliya amaliyotlarini soddalashtirish va takomillashtirish;</li> <li>- mintaqalarda ishlab chiqarishga innovasion texnologiyalarni va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilinishi;</li> <li>- qishloq xo'jalik ekinlari hamda chorvaning hudud xususiyatlari e'tiborga olib yaratilgan mahalliy navlari va nasllarini joriy qilish;</li> <li>- organik o'g'itlar bilan o'g'itlash orqali yerlarning ekologik sifatini yaxshilash va ekologik toza mahsulot yetishtirishni ko'paytirish;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- global va milliy darajadagi ekologik xavflarning kuchayishi;</li> <li>- iqlim o'zgarishlari va global isish muammolari kuchayishi;</li> <li>- mintaqada suv resurslari taqchilligining kuchayishi;</li> <li>- mamlakatda aholi sonining tez o'sishi va demografik muammolar;</li> <li>- xalqaro maydonda savdo va harbiy urushlar yuzaga kelishi;</li> <li>- siyosiy vaziyat tufayli turli iqtisodiy va moliyaviy cheklovlar, sanksiyalar kuchayishi;</li> <li>- mintaqalarda sanoatning rivojlanishi oqibatida sanoat ob'ektlari maydoni kengayishi;</li> <li>- yerlarning tabiiy unumdorligi pasayishi;</li> <li>- qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiy erkinligida ma'muriy to'siqlarning mavjudligi.</li> <li>- aholi turmush tarzini yaxshilanishi natijasida qishloq xo'jalik mahsuloti sifati va ekologik tozaligiga nisbatan yuqori talablarning qo'yilishi;</li> <li>- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida</li> </ul>

<ul style="list-style-type: none"> <li>- sanoatning resurstejamkor texnologiyalarga o'tishi;</li> <li>- sug'orish tizimlarining foydalanish koeffitsientini oshiruvchi yangi texnologiyalarni joriy qilish;</li> <li>- sug'orish usullarini takomillashtirish evaziga sug'orishga olinayotgan suv resurslari miqdorini kamaytirish;</li> <li>- almashlab ekish tizimini qo'llash orqali yerlarning sifatini yaxshilash;</li> <li>- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va h.k..</li> </ul>	<p>mavjud muammolarning kuchayishi orqali sohada investisiya jarayonlarining susayishi va h.k..</p>
--	---

SWOT tahlildan ko'rinmoqdaki, O'zbekistondayashil iqtisodiyotga o'tishning kuchli tomonlari yetarli saloiyatga ega, bo'lishi bilan birga imkonitlari ham katta ekanligini ko'ramiz. Biroq, jadvaldan ko'rinib turibdiku, agar vaqtida chora ko'rib, xavfli tomonlarning oldi olinmasa, ularning ko'lami kengayib, ta'siri ortadi. Bu o'z navbatida jarayonlarni murakkablashtiradi.

**Xulosa.** Yuqorida mintaqani ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlantirish konsepsiyasi bilan bog'liq fikrlarimizni umumlashtirib, mintaqaning ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishiga mualliflik ta'rifini keltirib o'tamiz. Mintaqaning ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishi – mintaqada ekologik va iqtisodiy tizimlarning hamda ularning o'zaro bog'liq jarayonlarining hududiy barqaror rivojlantirish maqsadida samarali tashkil etilishi sanaladi.

O'zbekistonda mintaqalarning iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishida hali ishga solinmagan qator yo'nalishlar mavjud. Bulardan biri sifatida mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish - hududiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida o'zining ijobiy samarasini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Зеленое восстановление и переход к зеленой экономике в Узбекистане. <https://www.uz.undp.org/docs./Green-Recovery/>.
2. Sayfiyev, Ibrokhim, and Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich. "Анализ Степени Озеленения Отраслей Экономики Бухарской Области." *Miasto Przyszłości* 51 (2024): 120-123.
3. Явмутов, Д. Ш. (2024). SANOATNI YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. " *Экономика и туризм*" международный научно-инновационной журнал, 1(15).
4. Сайфиев, И. и Явмутов, Д.С. (2024). Переход к зеленой экономике в ЕС: анализ политических и экономических сдвигов. *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ БИЗНЕС-СТАРТАПОВ И ОТКРЫТОГО ОБЩЕСТВА*, 4 (8), 1-4.
5. Yavmutov, D. (2023). Yashil iqtisodiyotga o'tishda xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.
6. Shoyimardonqulovich, Y. D., & Aminjon, U. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI RAQAMLASHTIRISH. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 55-58.
7. Бурхонов, Ж. Х. Ў., & Явмутов, Д. Ш. (2022). Экологизация экономики возможности и перспективы развития «зеленой» экономики в Узбекистане. *Science and Education*, 3(6), 114-118.

8. Явмутов, Д. Ш. (2021). ПРОБЛЕМЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ БУХАРСКОГО ВИЛОЯТА И ПУТИ ИХ УЛУЧШЕНИЯ. " *Экономика и туризм*" международный научно-инновационный журнал, 2(2).
9. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржоновна Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
10. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
11. Yuldosheva B. The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 84. – С. 01039.
12. Burxonov S., Khamidov O., Yavmutov D. Buxoro viloyatida sug 'oriladigan yerlardan samarali foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo 'llari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 41. – №. 41.
13. Shoimardonkulovich, Yavmutov Dilshod, and Sharapova Nigina Kadirovna. "GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN." *Gospodarka i Innowacje*. 23 (2022): 102-104.
14. Yavmutov D. Sh., Burxonov J., Karimova K. YaShIL IQTISODIYOТNI QO‘LLASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTONDA JORIY QILISH IMKONIYA TLARI //" *Ekonomika i turizm*" mejdunarodnyy nauchno-innovatsionnoy jurnal. – 2023. – Т. 2. – №. 10.
15. Dilshod, Yavmutov, and Burkxonov Sardor. "O ‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O ‘TISHI: ISTIQBOL YO ‘NALISHLAR VA USTUVOR VAZIFALAR." *Journal of new century innovations* 10.2 (2022): 159-168.